

Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 8 2024-YIL 24-SENTABR

1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni



O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUBORAK BO'LSIN!

Hurmatli ustozlar, akademiyaning qadrlil professor-o'qituvchilari! Siz azizlarni yaqinlashib kelayotgan – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan samimiy tabriklayman.

Dunyodagi ming-minglab kasblar orasida ikkita kasb – shifokorlik va o'qituvchilik kasbi borki, ular, toki hayot bor ekan, o'zining ma'no-mazmunini va oliyanobligini, ahamiyati va hurmatini hech qachon yo'qotmaydi.

Mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishi, mehnat qilishi, bilim va qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Inson qadrini ulug'lash, aholimiz manfaatlarini ta'minlash, buning uchun kuchli

iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy vazifamizdir", deya ta'kidlab o'tmagan. O'zbekistonda 2024-yilni "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilangani buning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy, tashkiliy va boshqa jarayonlarda qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni ustozlar ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin. Ularning sharaflil, ammo zahmatli mehnatdagi, ilmiy-ijodiy izlanishdagi hamda o'quv jarayonidagi jon fidoligini yuksak qadrlaymiz.

Izlanuvchan, iqtidorli, har tomonlama yetuk, faxrlanishga arziydigan talabalarimiz safi yil sayin ortib borayotganligi bizni behad shod etadi.

Hech kimga sir emas, bugungi kunda faqat yuksak bilimli, zamonaviy, mustaqil fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va amaliy kasb-hunarlariga ega bo'lgan yoshlarga buyuk kelajakni ta'minlashi mumkin. Ana shunday yetuk mutaxassis yoshni Siz tarbiyalab, voyaga yetkazasiz.

Qadri baland, muhtaram ustoz-murabbiylar!

Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor muborakbod etaman. Sizlarga sihat-salomatlik, uzoq umr, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik-omonlik, dasturxonangizga fayzu baraka tilayman. Ilmiy va ijodiy faoliyatingizda ulkan yutuqlar va omad yor bo'lsin.

SH.BOYMURODOV,
TTA rektori v.b, professor



Ustoz – inson ma'naviy dunyosining me'moridir.



SAYLOVLAR

XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY QONUNCHILIKKA TO'LA MUVOFIQ HOLDA O'TKAZILADI

**SAYLOV
2024**
27-OKTABR

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!



Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligiga bag'ishlangan tantanal marosimdagi nutqida 27-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va hududlardagi vakillik organlariga saylovlar bo'lib o'tishi haqida to'xtaldi. Ishonamanki, saylovlar xalqaro saylov standartlari va milliy saylov qonunchiligiga to'la muvofiq holda, kuchli raqobat muhitida bo'lib o'tadi, deya ta'kidladi.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti «Xalqaro huquq va ommaviy-huquqiy fanlari» kafedrasida dotsenti, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Zarina Isroilova saylov bilan bog'liq fikrlari bilan o'rtoqlashdi.

– Bu yilgi saylovlar yangilangan Konstitutsiyamizda belgilab berilgan ijtimoiy-siyosiy muhitda, rivojlangan davlatlardagi kabi ilk bor aralash saylov tizimi asosida o'tkaziladi, – deydi O'zA muxbiriga Zarina Isroilova. – Siyosiy partiyalar tomonidan Qonunchilik palatasiga deputatlikka nomzodlar ko'rsatishda ayollarning ulushi kamida 40 foiz bo'lishi belgilab qo'yildi.

Aytib o'tish kerakki, yangilangan Konstitutsiyada saylov bilan bog'liq me'yorlar kengaytirildi. 128-moddaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga ega.

Saylov kodeksida esa saylov o'tkazishning asosiy prinsiplari o'rin olgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida saylov umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali o'tkaziladi. Saylov ochiq va oshkora o'tkaziladi.

Fuqarolar jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqiga egadir.

Saylovlar o'tkazish jarayonida saylov okruglari tuziladi. Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish uchun yetmish beshta hududiy bir mandatli saylov okrugi tuziladi.

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha bir mandatli saylov okruglari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlarining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan har besh yilda bir marta tuziladi.

Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxati asosida Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasining butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish bo'yicha bir mandatli saylov okruglarining chegaralari Qoraqalpog'iston Respublikasining,

viloyatlarning va Toshkent shahrining ma'muriy-hududiy tuzilishi inobatga olingan holda, qoida tariqasida, O'zbekiston Respublikasining butun hududida saylovchilar soni teng holda belgilanadi.

Mahalliy kengashlarga saylov o'tkazish uchun saylov okruglari xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) kengashlaridagi deputatlik o'rinlariga teng miqdorda tuziladi.

Bir mandatli saylov okrugidan Qonunchilik palatasiga hamda mahalliy kengashlarga bo'lib o'tadigan saylovda har bir saylov okrugidan bitta deputat saylanadi.

Mahalliy Kengashlarga saylov o'tkazish bo'yicha bir mandatli saylov okruglari tegishli hududiy, tuman, shahar saylov komissiyasi tomonidan, qoida tariqasida, saylovchilar soni teng holda har besh yilda bir marta tuziladi. Saylov okruglarining chegaralari viloyatlar, tumanlar va shaharlarning ma'muriy-hududiy tuzilishi inobatga olingan holda belgilanadi.

Bir mandatli saylov okruglarini tuzishda saylov okruglaridagi saylovchilar sonining yo'l qo'yiladigan eng ko'p chetga chiqishi, qoida tariqasida, o'n foizdan oshmasligi kerak.

Bir mandatli saylov okruglarining ro'yxatlari ularning chegaralari, saylovchilar soni va saylov komissiyalarining joylashgan yeri ko'rsatilgan holda saylovdan kamida yetmish kun oldin tegishli saylov komissiyasi tomonidan e'lon qilinadi.

N.ABDURAIMOVA



Muallim – jamiyat ko'zgusi.



MULOQOT VA O‘ZARO TAJIRIBA ALMASHISH MAYDONI

Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining ko‘p sonli xodimlari va TTA Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi kafedrasini professor-o‘qituvchilari ishtirokida “Bugungi kunda bronxial astmani “yengil” va “og‘ir” turlarini davolashda ilmiy yutuqlari majmui” ilmiy-amaliy tadbir o‘tkazildi.

Bugungi kunda bronxial astmani “yengil” va “og‘ir” turlarini davolashda ilmiy yutuqlarga alohida to‘xtalib o‘tilib, shu mavzuga doir ma‘ruzalar tinglandi.

Tadbirda mahalliy mutaxassislar bilan bir qatorda, xorijiy davlatdan kelgan yetakchi olim FMBA (Rossiya) direktor o‘rinbosari, t.f.d., professor Zaurbek Aysanov ishtirok etib, ma‘ruza qildi. Shu bilan bir qatorda Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori va TTA Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi kafedrasini mudiri, professor Ilmira Razikova mavzuga oid o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Jumladan, professor I.Razikova o‘z so‘zida Jahon sog‘liqni saqlash

tashkiloti ma‘lumotiga ko‘ra, hozir yer yuzi aholisining qariyb 40 foizi allergiyadan aziyat chekmoqda. Har uch kishidan biri allergik rinit, har o‘ninchi odam bronxial astmaga chalinganligini e‘tirof etdi. Bu global muammo yurtimizda allergik kasalliklarni aniqlash hamda davolash bo‘yicha ilg‘or tajribalarni amaliyotga samarali tatbiq etish, sohada ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirishni taqozo etishi lozimligini ta’kidladi.

Shunga ko‘ra, tibbiyotning birlamchi bo‘g‘inidan boshlab allergik kasalliklarning epidemiologik ko‘rsatkichlari ustidan nazoratning kuchaytirilishi va manzilli skrining tekshiruvlari joriy etilishi belgilandi.

Allergik kasalliklar ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan hududlarda yiliga kamida bir marta ommaviy va selektiv skrining tekshiruvlari o‘tkazilib, hududlarda allergologiya va klinik immunologiya yo‘nalishida yuqori texnologik tashxislash va davolash amaliyotlari turlari bosqichma-bosqich 10 turdan



20 turgacha oshirilishi ham muhim yangiliklar sirasidan.

Tadbirda allergik kasalliklar ichida keng tarqalgan bronxial astma kasalligining diagnostikasi va ushbu xastalikni davolashning eng zamonaviy usullarini amaliyotga tatbiq etish, o‘zaro tajriba almashish, sohaga oid klinik tavsiyalar, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tartibi va standartlari atroflicha muhokama etildi.

Qiziqarli munozaralar bilan o‘tkazilgan ushbu ilmiy-amaliy tadbir barcha ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi va shu bilan bir qatorda tadbirning barcha ishtirokchilari uchun mahorat maktabi vazifasini o‘tadi.

Tadbirning yakuniy qismida tadbir ishtirokchilariga sertifikatlar topshirildi.

G‘iyosiddin ASALOV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
Allergologiya, klinik immunologiya
va hamshiralik ishi
kafedrasini assistenti



XALQARO FORUM IMKONIYATLAR ESHIGINI OCHMOQDA

Joriy yilning 1-5-sentabr kunlari Rossiya Federatsiyasida («Лидеры Евразии») xalqaro forumi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu nufuzli xalqaro tadbirda Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Moldova, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston va O‘zbekistondan 450 dan ortiq talaba, yosh olimlar, tadbirkorlar, jurnalist va siyosatchilar yig‘ildilar.

Eng quvonarlisi 450 nafar Yevroosiyo Liderlari ichida top 50 ta Liderlar saralab olindi va O‘zbekiston delegatsiyasi koordinatori sifatida TTA Yoshlar ittifoqi BT

“Yoshlar daftari” va metsenatlik yo‘nalishi koordinatori 1-son Davolash fakulteti talabasi Kamilov Jasurbek ham ishtirok etib, mukofotni qo‘lga kiritdi.

Forum yoshlarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish va imkoniyatlarni kengaytirish uchun ajoyib imkoniyatni taqdim etdi.

Forumda jamoada ishlash, o‘z loyihalarini yaratish va jurnalistlar hamda ommaviy aloqalar mutaxassislari bilan tanishish imkoniyati berildi. Bu uchinchi forum bo‘lib, yana bir bor yoshlar avlodini yangi liderlar uchun birlashtirdi!



Ta‘lim – yangi eshiklarni ochuvchi vositadir.



“O‘ZBEKISTONDA XIZMAT KO‘RSATGAN MURABBIY” TO‘LQIN QILICHEV ISHTIROKIDA UCHRASHUV



Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligi va yangi o‘quv yilining boshlanishi munosabati bilan Toshkent tibbiyot akademiyasida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir o‘tkazildi.

Talabalar va pedagogik jamoa, xalqimiz ardog‘idagi taniqli shoirlar, yurtimiz dovrug‘ini dunyoga tanitishda xizmat qilib kelayotgan sport ustalari va siyosatshunos olimlar ishtirok etgan tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangradi.

“O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan murabbiy” To‘lqin Qilichev va uning shogirdlari Murodjon Ahmadaliyev hamda Isroil Madrimovlar Toshkent tibbiyot akademiyasiga tashrif

buyurdi.

Shuningdek, tadbirga “Do‘stlik ordeni” sohibi, shoir Bobur Bobomurod ham tashrif buyurib o‘z she‘rlari bilan yanada fayz bag‘ishladi.

Talaba yoshlar ijrosida musiqiy-badiiy dastur namoyish etildi.

Ma‘lumot o‘rnida: Respublikamizda boksni rivojlantirishda o‘zining yuksak hissasini qo‘shib kelayotgan “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan murabbiy” To‘lqin Qilichev, Bahodir Jalolov, Murodjon Ahmadaliyev, Isroil Madrimov, Elnur Abduraimov va yana ko‘plab taniqli chempionlarni yetkazib bergan.

Ona Vatan dovrug‘ini dunyoga

tanitib kelayotgan millatimiz qahramonlariga Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari va ilmiy-pedagogik jamoa tomonidan yuksak ehtirom ko‘rsatildi.

Allalari tongni uyg‘otib,
Beshigida ulg‘aydi beklar.
Temur mingan otni o‘ynatib,
Dunyoni zabt etdi o‘zbeklar.

Tomirida jo‘sh urgan g‘ayrat,
Alpomishdan azal merosdir.
Qadamidan chaqnagan shiddat,
Hali-hamon o‘zbekka xosdir...

Gulchehra MIRZAYEVA,
TTA matbuot kotibi



“RAQAMLI TIBBIYOTDA YANGI TEXNOLOGIYALAR” RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR ILMIY KONFERENSIYASI

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika kafedrası tomonidan “Raqamli tibbiyotda yangi texnologiyalar” Respublika yosh olimlar ilmiy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

Respublika yosh olimlar ilmiy konferensiyasining ochilish marosimida Toshkent tibbiyot akademiyasi, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.Azizova, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Farmatsiya, menejment,

tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va OMH fakulteti dekani S.Aliyev, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti vakillari ishtirok etdi.

Konferensiyada ma‘muriy jarayonlarni optimallashtirish, ma‘lumotlarni boshqarishni takomillashtirish va boshqa masalalar haqida fikr almashildi.



Kitob – bilim dunyosiga bir ko‘prik.



Deontologiya asoslari

SHIFOKORNING BARCHA BILAN MULOQOTIDA TIBBIY DEONTOLOGIYA VA KASB ETIKASINING O'RNI

Darhaqiqat shifokorning hamkasabalari, qo'l ostidagi quyi bo'g'in tib xodimlari va mijozlari bilan muloqotida tibbiy deontologiya va kasb etikasining o'rni katta hisoblanadi.

"Tibbiyot - xalq va davlat boshqaruvi orasidagi ko'prikdir", degan edi yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev. Demakki, vaqt o'tishi bilan yurtimiz ahligha tibbiy xizmat ko'rsatishni tobora takomillashtira borishimiz, bu borada jahon andozalari darajasiga chiqib borishimiz zamon talabi hisoblanadi.

Kelajak avlodga tibbiy xizmat ko'rsatishni o'z zimmasiga oluvchi shifokorlarni har tomonlama ma'naviy va ma'rifiy boy, muomala madaniyati yuksak, muloqot san'ati barkamol qilib tarbiyalash hammaning burchidir. Taassufki, so'nggi yillarda bo'lg'usi shifokorlarga kasb etikasi, tibbiy deontologiyasi, muomala madaniyati, muloqot san'atini o'rgatuvchi fanlar dars jadvali kesimida kamayib ketdi, buning oqibatida esa tib jamoalarida takabbur va manman rahbarlar, qo'l ostida ishlovchi quyi bo'g'in xodimlar-hamshiralari, kichik hamshira-farroshtar bilan qo'pol ohangida muomala qiluvchi xodimlar ko'payib bormoqda.

Buyuk bobokalonlarimiz qoldirib ketgan boy ilmiy, adabiy va badiiy meroslarda insonning muomala

madaniyati xususida ko'plab bitiklar bor. Jumladan, "Ummatlarimning eng yaxshisi - ahli ayollariga muloyim bo'lganidir", "Yaxshilikni chehrasi ochiq odamlardan izlang" qabilida o'nlab hadislar mavjudki, ularning barchasi nafaqat tibbiyot xodimlari, balki o'zini inson hisoblagan har qanday odamning tili shirin, chehrasi ochiq bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida "Erdam boshi til", ya'ni odobning ibtidosi tildir degan bo'lsa, ulug' Navoiy bobomiz: "Tilga ixtiyorsiz, elga e'tiborsiz", "Oldiga kelganni yemoq - hayvonning ishi, og'ziga kelganni demoq - nodonni ishi", "Odam borki odamlarning naqshidir, odam borki hayvon undan yaxshidir" qabilidagi o'g'itlari, dono xalqimizning "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Yaxshi so'z bilan ilon inidan, yomon so'z bilan pichoq qinidan chiqadi" qabilidagi maqollari muammo dolzarbligini yanada ta'kidlaydi.

Ulug' ustozimiz, kasb etikasi va tibbiy deontologiya bo'yicha yetuk mutaxassis, deontolog-professor, Angliya Kembridj Xalqaro Biografiya markazining "XX-asrning intellektuali" kumush medali sovrindori, AQSH Biografiya Institutining "2000-yilning eng nufuzli 100 kishisi" kitobiga kiritilib,

oltin medaliga sazovor bo'lgan Erkin Yo'ldoshevich Qosimov ushbu dargohda uzoq yillar ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasini boshqargan. Olim va adibning 2002-yilda chop etilgan "Shifokorning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san'ati" kitobi bu boradagi eng qamrovi keng izlanishlarni o'z ichiga olgan o'quv qo'llanmasi bo'lib, har bir shifokorning stol usti qo'llanmasiga aylanib ulgurgan.

Bugungi kunda tib xodimlari bilan aholi o'rtasida ziddiyatlarning ko'payganligiga asosiy sabablardan biri aynan bo'lg'usi shifokorlarga muomala madaniyati va muloqot san'atini o'rgatuvchi kitoblar, o'quv qo'llanmalari, darsliklar chop etilmayotganligi, rahbar xodimlarning manman sabab bo'lmoqda. Bu masala ijobiy hal bo'lishi ko'pchilikning birgalikdagi harakatiga bog'liqligini aytish joiz.

Alijon FAQIROV,
Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi
va Turon Fanlar akademiyasi
akademigi, Respublika Sog'liqni
saqlash a'lochisi, ta'lim fidoyisi
ko'krak nishoni sovrindori,
Qutbiddin NIZOMOV,
Turon xalq yozuvchisi, Turon FA
akademigi

ARM yangiliklari

YANGI O'QUV YILIGA YANGI ADABIYOTLAR

TTA Axborot-resurs markazi fondi yangi adabiyotlar bilan boyitildi.

Endilikda siz kitob javonlaridan tibbiyotning barcha sohalariga oid ilmiy-tibbiy jurnallar, ma'naviy-ma'rifiy nashrlar, yangi olingan badiiy adabiyotlar, xususan Rossiyaning "Geotar Media" nashriyotidan sotib olingan rus va ingliz tilidagi kitoblarni topishingiz mumkin.

ARM jamoasi tomonidan talabalar uchun tibbiyotga doir o'quv adabiyotlarining ko'rgazmasi hozirlab qo'yildi.

Kitobxonlar ochiq fondga ega ilmiy o'quv zalida yangi olingan adabiyotlar bilan tanishishlari, badiiy asarlar mutolaasidan zavqlanishlari mumkin. Yangi

o'quv yilida barcha fakultetlar yuqori kurs talabarlari tor soha mutaxassisligiga oid adabiyotlardan ham foydalanish, QR kutubxonasi fondidan kerakli adabiyotlarni va ilmiy jurnallarni mobil qurilmalar yordamida skanerlab, onlayn o'qish yoki yuklab olish imkoniyatiga egadirlar.



TTA Matbuot xizmati



Hayot bilim bilan yanada go'zal.



1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni



1948-yilning 1-sentabr kuni Toshkent shahrining Eski shahar dahasidagi xonadonlardan birida, aniqrog'i Abduqodir ota va Zebixon ona xonadonlarida – shifokorlar xonadonida qiz farzand dunyoga keladi.

Ota-ona yaxshi niyatlar bilan "qizimiz rizqli-nasibali bo'lsin", deya qizaloqqa Rixsixon ismini qo'yadilar. Rixsixon bolalik chog'idanoq ilmga mehr qo'yadi, uch yoshidan alifbeni to'liq o'rganib, o'qiy boshlaydi. 4 yoshida o'qish kitobini bemaol o'qiydi, keyinroq esa Rixsixon tibbiy adabiyotlarga mehr qo'yadi. Chunki uning akalari va opalari shifokor bo'lib xizmat qilishardi. Rixsixon 1966-yili o'rta maktabni oltin medalga tamomlab, hech ikkilanmay hujjatlarini ToshMIga topshiradi. Sinov imtihonlarini a'lo baholarga topshirib, ToshMI talabasi bo'ladi. 1972-yili oliygohni imtiyozli diplomga bitirgan Rixsixon ToshMI biokimyo kafedrasi izlanuvchisi bo'lib ish boshlaydi, darhaqiqat uning asl maqsadi ilm yo'lidan borish edi.

Yaxshi niyat bilan qilingan orzular ro'yobga chiqqan boshlaydi. Rixsixon 1982-

EL ARDOQLAGAN – OLIMA

yili nomzodlik, 1994-yili esa doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi. Kafedrada izlanuvchanlikdan ish boshlagan olimka kafedra mudiri lavozimigacha yetib boradi.

Rixsixon Sobirova pedagoglik faoliyati davomida tajribali, yuqori malakali pedagog va mutaxassis bo'lib yetishdi. U ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni yuqori metodologik saviyada olib boradi, o'qitishda innovatsion texnologiyalar va zamonaviy adabiyotlardagi ma'lumotlardan unumli foydalanadi. Olimka o'z ustida tinmay ishlaydi, muntazam ravishda kasbiy mahoratini oshiradi, jamoatchilik ishlarida faol qatnashadi.

R.Sobirova iste'dodli ilmiy izlanuvchi, talabchan pedagog, ilmiy rahbar, biologik kimyo ixtisosligi bo'yicha 6 ta fan nomzodi va 1 ta fan doktorini tayyorlagan. Shu kunga qadar olimka 184 tadan ortiq ilmiy, o'quv va uslubiy nashrlarda, shu jumladan 3 ta darslik, 2 ta monografiya muallifidir. Olimka qator xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar qatnashchisi hisoblanadi.

Ayol kishi qanday lavozimda ishlashidan qat'iy nazar uyiga kelganidan so'ng oila bekasi, farzandlari uchun mehribon Ona, nabiralari uchun esa suyuqli buvijonga aylanadi. Darhaqiqat olimka R.Sobirovani hamma havas qilsa arzigulik oilasi, suyuqli farzandlari – o'g'il qizlari hamda shirindan-shakar nabiralari ularni ishdan kelishini orziqib kutib oladi. Rixsixon Abduqodirovnaning o'g'li –

Ulug'bek Sobirov Respublika dermatovenerologiya ilmiy-amaliy markazi rahbari, tibbiyot fanlari doktori, professor. Olimaning qizi – Dilchehra Yo'ldosheva (Sobirova) Toshkent tibbiyot akademiyasi akusherlik va ginekologiya kafedrasida dotsent, tibbiyot fanlari doktori.

Professor Rixsixon Sobirovani sarmahsul va mashaqqatli mehnatlari munosib taqdirlanib, 2018-yili olimka "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni sohibasi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi rektorati tomonidan faxriy yorliq va tashakkurnomalar bilan taqdirlangan.

Rixsixon Sobirova shu tarzda suyuqli oilasi, sevgan kasbini ikki qo'lida mahkam tutib, har ikkisiga mehr berib, evaziga el ardog'ida izzat topib, yashayotgan minglab ustozlardan biri sifatida e'tirofga loyiqdir.

Hamma havas qilsa arziydigan, hamma orzu qiladigan shinam oila, shifokorlar, ziyolilar oilasi. Oila bekasi alloma olimka, professor Rixsixon Sobirovani aziz va sevimli Ustozimizni yaqinlashib kelayotgan 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin dildan muborakbod etar ekanmiz, necha minglab xasta dillarga shifo taratayotgan shifobaxsh qo'llaringiz aslo tolmasin muhtarama Ustoz deb qolamiz!

Qutbiddin NIZOMOV,
Turon fanlar akademiyasi
akademigi, Turon xalq yozuvchisi,
Alijon ZOHIDIY,
Yevropa tabiiy fanlar
akademiyasi akademigi,
Sog'liqni saqlash a'lochisi



*Vatani borning — baxti bor,
Mehnati borning — taxti.*



O'iganlarning oxirati obod bo'lsin

AKADEMIYANING TANIQLI OLIMI EDI...

RAJABBOY ISROILOV (03.04.1953 – 07.09.2024)

Joriy yilning 7-sentabr kuni t.f.d, professor, O'zR SSV RPAM direktori, SSV bosh patologoanatom, TTA Patologik anatomiya kafedrasida professori Rajabboy Isroilov 71 yoshida vafot etdi.

Inson hayotiga baho berilar ekan, uning qanchalik uzunligiga emas, balki qanchalik mazmunga ega ekanligiga e'tibor qaratiladi. Shuning uchun inson dunyoga kelibdiki o'z aql-zakovati va mehnati bilan insoniyat tarixida o'ziga xos iz qoldirishga harakat qiladi.

Shunday insonlar borki umri davomida o'z shijoati bilan sermazmun hayot kechiradi. Ana shunday insonlardan biri ustozimiz t.f.d, professor, O'zR SSV RPAM direktori, SSV bosh patologoanatom, TTA Patologik anatomiya kafedrasida professori Rajabboy Isroilovdir.

Rajabboy Isroilov 1953-yili Samarqand viloyati Bulung'ur tumanida dehqon oilasida tug'ilgan. 1976-yili Toshkent davlat tibbiyot institutini imtiyozli diplom bilan tugatib, Patologik anatomiya kafedrasida stajyor-tadqiqotchi qilib qoldirildi. 1978-yildan boshlab kafedra assistenti, 1985-1996-yillar kafedra dotsenti, 1996-yildan ToshDavTI, 2005-yildan TTA kafedra professori lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan. 2008-2013-yillar Normal fiziologiya va patologik fiziologiya va patologik anatomiya kafedrasida mudiri bo'lib faoliyat yuritgan. 2013-yildan Patologik anatomiya kafedrasida professori sifatida soha rivojiga o'z hissasini qo'shgan.

1982-yili kandidatlik dissertatsiyasini, 1995-yili esa doktorlik dissertatsiyasi yoqlagan.

2017-yildan O'zR SSV Respublika patologik anatomiya markazi direktori lavozimida ishlab kelgan.

Ko'p yillar R.Isroilov talabalarga amaliy mashg'ulotlar va ma'ruzalar o'tgan, talabalarni sevimli o'qituvchisiga aylangan. Ustoz 4 o'quv qo'llanma, 14 o'quv-uslubiy qo'llanma, 2 darslik muallifi hisoblanadi.

Ilmiy faoliyatida 400 dan ortiq ilmiy maqolalar, 4 ta monografiya, 8 ta ixtiroga patent muallifidir. 4 fan doktorlik va 40 ortiq fan nomzodlik va falsafa doktorlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilgan, 2 ta mahalliy grant loyihalarda ishtirok etgan. 2011-2014-yillari O'zR VM qoshidagi OAQ ekspert kengashi a'zosi bo'lgan.

R.Isroilov RPAM direktori lavozimida va bosh mutaxassis sifatida respublika patologik anatomiya xizmatini rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Jumladan PAXni hujjatlar yuritilishi, RPAMni status o'tishi bo'yicha hujjatlar tayyorlangan. Vrachlar malakasini oshirish, qayta tayyorlash yangi tizimi yaratildi. RPAM zamonaviy elektron mikroskopi, morfometriya, gistoximiya usullarni qo'llashga ega bo'ldi. Viloyat patologoanatomik byurolari ta'mirlandi.

R.Isroilov vrachlarni attestatsiyalash va mutaxassislik bo'yicha kvalifikatsion toifa berish komissiyasining doimiy a'zosi, TTA



va Farg'ona TI qoshidagi Ilmiy kengashlar a'zosi bo'lgan.

Kamtarin va keng qamrovli inson, talabalar hamda mutaxassislar orasida, TTA xodimlari orasida katta hurmatga ega bo'lganligini alohida e'tirof etish joiz.

Yoshlarning tibbiy madaniyatini yuksaltirish, ular orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi tibbiyot xodimi va u doimiy ravishda tashabbus ko'rsatib, barcha jamoatchilik tadbirlarida faol ishtirok etgan.

R.Isroilov COVID-19 pandemiyasi vaqtida ham fidokorona mehnat qilib, ushbu kasallikka qarshi kurashish, xalqimiz salomatligi to'g'risida qayg'urib, xalq bilan yelkama-yelka turib, kasallikning oldini olish, kasallikdan vafot etganlarni dafn etish masalalari bo'yicha tuzilgan hay'at bosh maslahatchisi bo'lib xizmat qildi.

Vatanimiz oldidagi xizmatlari uchun R.Isroilov Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan bir necha bor tashakkurnomalar, "Sog'liqni saqlash a'lochisi" bilan taqdirlangan.

So'zimiz so'nggida R.Isroilovning porloq xotirasi O'zbekiston tibbiyoti, hamkasblari va shogirdlari xotirasida mangu yashaydi.

SSV Respublika patologik anatomiya markazi va TTA Patologik anatomiya kafedrasida jamoasi



Qiyinchiliksiz hech bilim yo'q.



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI
(2024-yil sentabr)**

№	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	1-son fakultet va gospital terapiya va kasb patologiyasi	assistent – 1,0
2.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	dotsent – 1,0
3.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	professor – 1,0
2-son davolash fakulteti		
4.	Psixiatriya va narkologiya	dotsent – 1,0
5.	Tibbiy radiologiya	assistent – 1,0
6.	Dermatovenerologiya va kosmetologiya	assistent – 1,0
7.	Normal va patologik fiziologiya	assistent – 1,0
Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti		
8.	Gistologiya va tibbiy biologiya	assistent – 1,0
9.	Jamoat sog'liqni saqlash maktabi	dotsent – 1,0
10.	Atrof-muhit gigiyenasi	assistent – 1,0
11.	Epidemiologiya	assistent – 1,0
12.	Patologik anatomiya	assistent – 1,0
Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti		
13.	Jamoat salomatligi va menejment	assistent – 1,0
14.	Farmakologiya	assistent – 1,0
15.	Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika	assistent – 1,0
16.	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi	assistent – 1,0
17.	Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi	assistent – 1,0
18.	Ijtimoiy fanlar	o'qituvchi – 1,0
Malaka oshirish fakulteti		
19.	Akusherlik va ginekologiya	dotsent – 1,0
20.	Akusherlik va ginekologiya	mudir – 1,0
21.	Vrachlar malakasini oshirish	assistent – 1,0
22.	Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi	dotsent – 1,0
Xalqaro fakultet		
23.	Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya	assistent – 1,0
24.	Tibbiy va biologik kimyo	assistent – 1,0

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

MUASSIS:
**TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI**

MUHARRIR
**TURDIQUL
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAY'ATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahifalandi va Toshkent
Tibbiyot akademiya RIZOGRAFda
400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun mas'ul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun
mualliflar javobgardir

Beput tarqatiladi